

JINOYAT PROTSESSUAL MUDDATLAR INSTITUTINING NAZARIY ASOSLARI HAMDA TAHLILI

Rashidov Nodir Normurod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

“Tergov faoliyati” yo'nalishi magistranti.

E-mail: rashidovnodir1997@gmail.com; Phone: +99850 578-90-00.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11536005>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessual muddatlarni asosiy protsessual institutlardan biri sifatida e'tirof etilishini ilmiy asoslash, uning nazariy asoslari hamda tahlilini o'rganish, shuningdek, jinoyat-protsessida muddatlarga rioya qilmaslik va uning huquqiy oqibatlarini ilmiy izohlash munozara qilingan.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessual muddatlar, jinoyat, protsessual muddatlar, muddat, jinoyat huquqi, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, javobgarlik, protsessual harakatlar, jinoyat protsessi ishtirokchilari.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE INSTITUTE OF CRIMINAL PROCEDURAL TERMS ARE ALSO ANALYZED

Abstract. This article discusses the scientific justification of the recognition of criminal procedural deadlines as one of the main procedural institutions, the study of its theoretical foundations and analysis, as well as the scientific interpretation of non-observance of deadlines in the criminal process and its legal consequences.

Key words: criminal procedural terms, crime, procedural terms, term, criminal law, pre-trial investigation, preliminary investigation, liability, procedural actions, participants in criminal proceedings.

ТАКЖЕ АНАЛИЗИРУЮТСЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНСТИТУТА УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ СРОКОВ.

Аннотация. В данной статье рассматривается научное обоснование признания уголовно-процессуальных сроков одним из основных процессуальных институтов, исследование его теоретических основ и анализ, а также научная трактовка несоблюдения сроков в уголовном процессе и его правовых последствий.

Ключевые слова: уголовно-процессуальные сроки, преступление, процессуальные сроки, срок, уголовный закон, досудебное расследование, предварительное расследование, ответственность, процессуальные действия, участники уголовного процесса.

“Muddat” bu vaqtning aniq biror-bir ish, narsa uchun belgilangan bo‘lagidir¹. JPKda muayyan protsessual harakatlar sodir etilishi kerak yoki ularni bajarish man etilgan vaqt oralig‘i protsessual muddat deyiladi. “Jinoyat protsessual muddatlar – protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish yoki bajarishdan o‘zlarini tiyishga oid protsessual qonunda ko‘rsatilgan yoki unga binoan jinoyat ishini yuritishga mas’ul shaxslar tomonidan belgilangan

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati (80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi) J.5. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 626, b.

muddatlardir”. JPKning 39-bobini ushbu ta’rifdan boshlash lozim². Jinoyatlarning qanchalik tez va to’la ochilishi hamda aybdorlarning fosh etilishi kelgusida jinoyatlarning takrorliyligi va latentligi oshib borishining oldini oladi. Shu maqsadda, protsessual tezkorlikni oshirish uchun davlatlar o’z sud-huquq tizimlarini qayta ko’rib chiqib, sud ish yurituvining zamonaviy talablarga mos shakllarini ishlab chiqishlarini tavsiya etilayotganligini ham ta’kidlash joiz. Yevropa Kengashi qo’mitasi tomonidan 1987 yilda qabul qilingan “Jinoyat ishlari bo’yicha odil sudlovni imkon qadar soddalashtirish to’g’risida”gi tavsiyalarida, odil sudlovni ta’minlash muddatlarining cho’zilib ketayotganligi huquqni muhofaza qilish organlar obro’siga salbiy ta’sir etib, insonlarning oqilona muddatlarda sud muhokamasiga bo’lgan xalqaro umum e’tirof etilgan huquqlarining buzilishiga olib kelayotganligi ta’kidlangan. Bu kabi holatlar jamiyatda, aniqrog’i har bir insonda adolat borligiga shubha tug’dirishi begumon. Shu bois, sodir etilgan jinoyat va buning uchun adolatli hukm chiqarish vaqtini imkon qadar yaqinlashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi o’z vaqtida kurashishga erishish lozim.

Bugungi kunda sudgacha bo’lgan bosqichda tezkorlikka erishish maqsadida A.Ponomaryov va I.Maslov ayrim turdagi jinoyatlar bo’yicha dastlabki tergovning surishtiruv shaklida olib boorish yetarli ekanligini, bu ancha vaqt va mablag’ni tejashga imkon berishi³ni takidlaydi. Darhaqiqat, yrim ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan va uncha og’ir bo’lmagan jinoyatlar yuzasidan tergov olib boorish behuda vaqt yo’qotishlarga olib keladi. Vaholanki, ushbu ishlar bo’yicha dalillarni to’plash yuqori malakali tergovni talab etmay, surishtiruv chegarasida, jinoyat protsessining yanada soddalashgan shaklida olib borilishi mumkin. Ayni paytda, jinoyat huquqida bo’lgani kabi jinoyat protsessida ham differentsiyatsiyalashga erishish ya’ni jinoyat huquqida jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko’ra turlarga bo’linganidek, jinoyatlarning tez va to’la ochilishi uchun jinoyat protsessi ham turkimonlanadi. Bu esa sudgacha bo’lgan bosqichni, balki sud muhokamasi bosqichini ham isloh etishga xizmat qiladi. Umuman jinoyat protsessini differentsiylanishi – har bir jinoyat ishining taqdiri adolatli yakunlanishiga kafolatlaydigan tartibda ammo uning ijtimoiy xavfiga asoslangan holda hal qilinishi zarur deganidir⁴. Shu ma’noda, javobgarlik nuqtai-nazaridan protsessni individuallashtirish hamda jinoyat protsessual vazifalarni tezkorlik bilan amalga oshirish usullaridan biri hisoblanadi. Hozirda dunyoning barcha burchagida huquqshunoslar, sudyalalar va boshqa amaliyot xodimlari jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko’ra protsessni ham muvofiqlashtirish haqiqat ekanligini to’la tan olishadi⁵.

Jinoyat protsessual muddatlar jinoyat protsessining mustaqil instituti sifatida o’zining mazmuni va mohiyatiga ega bo’lib, protsesul harakatlarning bajarilishi, protsessual qarorlarning qabul qilinishi hamda muayyan vazifalarning ado etilishida muhim o’rin tutadi.

Mamlakatimiz tarixida jinoyat-sudlov sohasini tartibga solgan birinchi milliy yozma huquqiy manba bo’lgan O’zSSRning 1926 yil 16 iyunda qabul qilingan va 1926 yil 1 iyulda kuchga kirgan JPKda protsessual muddatlar hamda ularni tartibga solishga oid ilk normalar o’z

² Qadirova Mohigul Xamitovnaning yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi Toshkent. 2011

³ Пономарев.А До судебное производство: возможности совершенствования //Законность. -М, 2009. №6-С 47-48; Маслов.И Реформа досудебного производства //Законность –М, -№5. –С. 20.

⁴ Muhitdinov.F.M. Jinoyat protsessi: mohiyat, mazmun, shakl. –Toshkent. 2002 –B 231

⁵ Гуценко.К.Ф., Головка.Л.В., Филимонов.Б.А. Уголовный процесс западных государств. 2-е изд. -М : “Зерцало-М”, 2002.-С. 28-29

aksini topa boshladi. Unda protsessual muddatlar va sud chiqimlariga bag‘ishlangan oltinchi bob (80-85-moddalar) ajratilib, protsessual muddatlar huquqiy maqomga ega bo‘lgan. O‘zSSRning navbatdagi 1929 yil 29 iyunda qabul qilingan va 1 avgustda kuchga kirgan JPKda protsessual muddatlarga bag‘ishlangan bob yoki bo‘lim mavjud bo‘lmay, uning ayrim moddalarida muddatlar va ularni uzaytirish asoslari keltirib o‘tilgan. Bunday qoidalar O‘zSSRning 1959-yil 21-mayda qabul qilingan va 1960 yil 1 yanvardan kuchga kirgan JPKda o‘z aksini topib, uning 5-bobi “jinoyat ishi bo‘yicha protsessual muddatlar va sud chiqimlari” deb nomlangan. Ta’kidlash o‘rinliki, mustaqil O‘zbekistonning 1994-yilda qabul qilingan amaldagi JPK muqaddam amalda bo‘lgan jinoyat protsessual qonunlardan demokratiya hamda inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etishi, insonparvarlik va odillik singari g‘oyalarga sug‘orilganligi bilan ajralib turadi hamda protsessual muddatlarning tartibga solinishiga oid muddatlarni hisoblash, protsessual majburlov choralari qo‘llanganda protsessual muddatlarni hisoblash, muddatlarni uzaytirish va muddatni tiklash qoidalarini alohida “Protsessual muddatlar” deb nomlangan 39-bobda belgilab beradi. Ilgari amalda bo‘lgan JPKlarda protsessual muddatlarga ta’rif berilmagan bo‘lib, yuridik adabiyotlarda unga turlicha ta’riflar keltirib o‘tiladi. Masalan, ayrim tadqiqotchilar, protsessual muddatga – muayyan protsessual faoliyatni amalga oshirish uchun qonunda belgilangan vaqt⁶, deb ta’rif berishadi. Ta’rif nazarimda to‘liq bo‘lmay, protsessual muddatlar faqatgina protsessual muddatni amalga oshirish uchun emas, balki protsessual bosqichlarning boshlanishi va tugallanishi uchun ham belgilanadi.

Ba’zi huquqshunoslar protsessual muddatlar subektning u yoki bu protsessual faoliyatni amalga oshirish yoki protsessual qarorlarni qabul qilish huquqini aniqlashga xizmat qilishini⁷ ta’kidlashadi. Mazkur mualliflar protsessual muddatlarning u yoki bu ta’rifini bera turib, muayyan mezonlardan kelib chiqishadi. Xususan, R.P.Sokol va T.L.Karepanovalar shaxsning huquq va erkinliklarini himoyalash kafolatlarini asos qilib olib, “Protsessual muddatlar – bu qonuniylik hamda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari (erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, sud himoyasi, yetkazilgan ziyonni qoplash huquqi) himoyasini ta’minlash mexanizmida muhim ahamiyatga ega huquqiy vositadir⁸”, deb yozadi.

Zamonaviy huquqshunos olimlarning aksariyati, protsessual muddat – bu vaqt oralig‘i bo‘lib, uning mobaynida protsessual harakatlar amalga oshirilishi yoki ularni amalga oshirishdan tiyib turish talab etilishi hamda ular JPKda belgilanganligi bois, majbur etuvchi xususiyatga ega ekanligini nazarda tutishadi⁹. Ushbu mazmundagi ta’rif muddatning ham harakat, ham harakatsizlikni tartibga solishi hamda imperative xususiyati (rioya etish majburiyiligi va huquqiy oqibatlarining mavjudligi)ni ancha to‘liq ochib beradi. Protsessual harakat yoki

⁶ Скворцова С.А, Угольников Н.В, Шуренкова С.С, Уголовный процесс: Учебное пособие.

⁷ Уголовно-процессуальное право: Учебник / под. Общ. Ред. В.И.Рохлина –СПб : «Юридические центр Пресс», 2004. –С. 226.

⁸ Сокол Р.П. Процессуальные сроки в судебных стадиях уголовного судопроизводства Российской Федерации: правовая регламентация и процессуальные особенности. Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. - Владимир, 2008. -С. 5; Корепанова Т.Л. Процессуальные сроки как гарантия защиты конституционных прав, свобод личности в российском уголовном процессе: Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. -Ижевск, 2004. -С. 7. Жиноят процесси (Умумий қисм): Дарслик. / З.Ф.Иноғомжонов у.м. таҳрири остида. -Т.: Янги аср авлоди, -Б. 366; Минов Г.М. Уголовный процесс: Конспект лекций. -Ростов-н.Д.: Феникс. -Новосибирск, -С. 127.

⁹ Маслов.И.В Актуальные проблемы правовой регламентации процессуальных сроков в судебном производстве по уголовным делам: Дисс.канд. юрид. наук. –Москва. 2003. –С 175.

harakatsizliklarning muayyan vaqt oralig'ida yoki muayyan muddatda amalga oshirilishini aniqlash va umuman, jinoyat protsessual muddatlarga ta'rif berishdan avval, "muddat" so'zining ma'nosi va mazmun mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Jumladan, semantik yondashish "muddat" atamasining quyidagi ma'nolarini aniqlashga imkon beradi: biror narsaga kirishish, bajarish fursati, muhlat¹⁰. Muddat tushunchasi vaqt tushunchasi bilan uzviy bog'liq, ya'ni muddatni hisoblashda vaqtning umumiy birliklari: soat, kun, hafta, oy va yillardan foydalaniladi¹¹, lekin ular orasida tafovutlar mavjud. Masalan, vaqt muddatdan farqli o'laroq, jilovlanmas, uzluksiz, inson xohishidan tashqarida bo'lgan mustaqil obektiv voqelikdir¹². Muddat esa aksincha, to'xtatilish, uzaytirilish, tiklanish kabiyuridik mohiyatga: muddat o'tishining boshlanishi va tugallanishi xususiyatlariga ega¹³. Shu jihatdan muddatni vaqtga tenglashtirib bo'lmaydi. Protsessual muddat, avvalo, huquq institutlaridan biri bo'lib, huquqiy me'yorlar (qonun, qonun osti hujjatlar)da aks etadi va majbur etish xususiyatiga ega. Muddatlarning qaysi huquq sohasida aks etkanligiga qarab, uning huquqiy mohiyati ham belgilanadi. Chunonchi, jinoyat protsessual huquqida muddatlar jinoyat protsessual munosabatlarni tartibga solganligi bois, jinoyat protsessual muddatlar deb yuritiladi va uning huquqiy mohiyati jinoyat protsessual qonunchiligi bilan belgilab beriladi.

Huddi shuningdek, jinoyat protsessida surishtiruvchi, tergovchi va prokurorlar ushbu muddatlar bilan birga Bosh prokurorning, IIVning nizom va yo'riqnomalarida belgilangan muddatlarga ham amal qiladi. Bunday muddatlarga rioya etmaslik esa, jinoyat protsessual qonun normalarini buzish hisoblanmaydi va faqat intizomiy javobgarlik yuzaga keltiradi. Shu jihatiga ko'ra, ular jinoyat protsessual muddatlar hisoblanmaydi.

Jinoyat protsessual qonunda ko'rsatilgan yoki jinoyat ishini yuritishga mas'ul shaxslar tomonidan belgilangan muddatlarga rioya etmaslik esa bundan farqli o'laroq, jiddiy huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradi, masalan, protsessual harakatlarning oqibatlari tan olinmasligiga yoki qabul qilingan qarorlarning haqiqiy emas deb topilishiga; majburiy keltirilishiga; gumon qiluvchi yoki ayblanuvchining qamoqdan ozod etilishiga sabab bo'ladi.

Ularning huquqiy mohiyatini belgilashda esa vaqtning jilovlanmas, inson xohishidan tashqarida kabi xususiyatlarini emas, muddatga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, terminlarni qo'llashda yagona yondashuvni yaratish va so'zlarni o'z o'rnida qo'llash talab etiladi. Shu ma'noda, jinoyat protsessida protsessual munosabatlar muayyan vaqt bilan emas, balki muayyan muddat bilan tartibga solinadi. Ayni paytda, protsessual qonunchilikda, protsessual harakat yoki harakatsizliklarning muayyan muddat ichida bajarilishidan tashqari, muayyan muddatgacha va muayyan muddadan so'ng ham amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Buni esa quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

- Muayyan muddatgacha protsessual harakatning bajarilishida, ayblanuvchining qamoqda saqlab turishning yoki u uy qamog'ida bo'lishining belgilangan muddati tugashidan kamida olti sutka oldin tegishli prokuror qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqarishi (JPKning 247-moddasi) hamda

¹⁰ Ахмедов Ф., Бектемиров Х. Русча-ўзбекча юридик атамалар луғати. -Т.: «Адолат», 2002. -Б. 261; Юридический словарь / Под ред. А.Н.Азрилияна. -М., 2007. -С. 968.

¹¹ Большая юридическая энциклопедия. -М.: Эксмо, 2008. -С. 566.

¹² Философский словарь / Под редакцией И.Т.Фроловой. 4-е изд. -М., 1990. -С. 64.

¹³ Головистикова А.Н., Грудцына Л.Ю. Толковый словарь юридических терминов. -М.: Эксмо, 2008. -С. 352.

muayyan muddatdan so'ng protsessual harakatning amalga oshirilishida esa, hukm e'lon qilinganidan keyin uch sutkadan kechiktirilmay, hajmi katta bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirilmay, uning nusxasi mahkumga va oqlangan shaxsga berilishi (JPKning 475-moddasi);

- Ayrim protsessual harakatsizlikning muayyan muddatgacha bajarilishida, tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinishi (JPKning 329-moddasi) hamda ayrim protsessual harakatsizlikning muayyan muddatdan so'ng amalga oshirilishida esa, appelyatsiya shikoyatlar va protestlari belgilangan muddatdan keyin berilgan taqdirda, oqibatsiz qoldirilishi belgilangan (JPKning 497⁴-moddasi).

Jinoyat protsessual muddatlar tushunchasini batafsil yoritish uchun o'rganilgan ilmiy va lug'aviy tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, aksariyat adabiyotlarda unga ta'rif berib o'tilgan va ushbu ta'riflar ham turf axil. Jumladan, "O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi"da protsessual muddatlar – jinoiy, fuqarolik va iqtisodiy ishlarini sudga ko'rish va hal qilish uchun qonun bilan belgilangan toki sud tomonidan tayinlangan muddatga aytiladi¹⁴. Ushbu ta'rif nazarimizda, protsessual muddatlarning huquqiy mohiyatini to'la ochib bermaydi, chunki protsessual muddatlar faqat jinoiy ishlarini sudga ko'rish va hal qilishga emas, balki jinoyat protsessining barcha maqsad va vazifalari, bosqichlari (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini qo'zg'atish, surishtiruv, dastlabki tergov va b)ni huquqiy tartibga solishga qaratilgandir.

Protsessual muddatlarning huquqiy mohiyatini yoritishda muddatlarni belgilash tartibi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular qonun tomonidan yoki surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, sudning ajrimi bilan belgilanishi mumkin. (JPKning 316-moddasi) Ushbu muddatlarning qay biri protsessual muddat hisoblanishi xususida munozarali fikrlar mavjud bo'lib, ba'zi tadqiqotchilar, faqat qonunda belgilangan muddatlarni protsessual muddatlar deb hisoblasa¹⁵, aksariyat olimlar sud tomonidan tayinlangan muddatlarni protsessual muddatlar deb hisoblashadi¹⁶, tergovchi tomonidan ishni tergov qilish jarayonida chaqiruv qog'ozi va topshiriqda belgilangan tergov harakatlari muddatlari, uning tashkiliy masalalarni hal etish xususiyati bilan protsessual muddat hisoblanmasligi va protsessual muddatlar deb, faqatgina huquqiy xususiyat kasb etadigan muddatlar tan olinishini qayd etishadi¹⁷.

Bizningcha, birinchidan, protsessual huquqda barcha muddatlar huquqiy xususiyat kasb etadi, chunki ular yordamida huquqiy munosabatlar boshlanishi va tamomlanishi¹⁸ hamda huquqiy

¹⁴ Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. -Т.: "Адолат", 2009. -Б. 374.

¹⁵ Матушевский Р.Г. Уголовно-процессуальное право: Пособие. -М., 2005. -С. 177; Калиновский К.Б. Процессуальные сроки в уголовном судопроизводстве и их регламентация по Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации //Ленинградский юридический журнал, 2005. -№2(3). -С. 139-145.

¹⁶ Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. -Т.: "Адолат", 2009. -Б. 374.

¹⁷ Томин В.Т., Якупов Р.Х., Дунин В.А. Процессуальные документы, сроки и судебные издержки в уголовном судопроизводстве. -Омск, 1973. -С. 19,20.

¹⁸ С.Б.Россинский процессуал муддат ёрдамида ҳуқуқий муносабат ўзгаришини ҳам таъкидлаб ўтади / Россинский С.Б. Уголовный процесс России: Курс лекций. -2-е изд., исправлен, и дополнен. -М.: «Эксмо», 2008. -С. 222.

oqibatlar yuzaga kelishi mumkin¹⁹. Masalan jinoyat ishini yuritish munosabati bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan belgilangan tartibda chaqirilgan shaxslar aynan ko'rsatilgan vaqtda hozir bo'lishlari shart bo'lib, uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda ular majburiy keltiriladilar (JPKning 261-moddasi). Ikkinchidan, protsessual huquqda barcha muddatlar mohiyatiga ko'ra tashkiliy vosita bo'lib, odil sudlov maqsad va vazifalarini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shu jihatdan ular protsessual shakl sifatida e'tirof etiladi²⁰.

Protsessual huquqda muddatlar aksariyat hollarda muayyan harakat yoki harakatsizlik bilan bog'liq bo'lib, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning o'z huquq va majburiyatlari doirasida faoliyat yuritish imkoniyatlarini belgilab beradi, ya'ni protsessual muddat huquq bilan birga majburiyatni ham yuzaga keltiradi. Masalan, bir tarafning belgilangan muddatda shikoyat keltirish huquqi ikkinchi tarafga ushbu shikoyatni belgilangan muddat ichida ko'rib hal etish majburiyatini yuklaydi. Shuning uchun barcha muddatlar odil sudlovni ta'minlashda protsess ishtirokchilarining qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarini bajarishlariga imkon beruvchi protsessual shakl hisoblanadi.

Ko'pchilik hollarda muddatlarning uzaytirilishi tashkiliy vazifalarni hal etibgina qolmay, protsessual bosqichlarga ta'sir etishi mumkin. Masalan, tergov muddati tugashidan kamida o'n sutka ilgari topshiriladigan tergovchining iltimosnomasiga asosan prokuror tomonidan tergov muddatining uzaytirilishi (JPK 351-moddasi) – jinoyat protsessining ikkita mustaqil bosqichiga, ya'ni dastlabki tergov muddatining tamomlanishi va jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichining boshlanishiga jiddiy ta'sir etadi. Shuning uchun qonunda belgilangan muddatlar bilan birga, protsessual bosqichlarning boshlanishi va tamomlanishiga ta'sir etadigan (uzaytirish, tiklash) kabi barcha muddatlarni ham protsessual muddat deb hisoblash joiz. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, istalgan huquqiy normaning mazmuni qaysi maqsad uchun o'rnatilgan bo'lsa, shunga yo'naltirilganligiga oid qoida mavjud. Xususan, protsessual muddatlarning belgilanishidan maqsad – protsess ishtirokchilarning huquq va erkinligi, qonuniy manfaatlarining o'z vaqtida himoyalinishi²¹ hamda jinoyat ishi yurituvda oqilona tezkorligini ta'minlash talabini ro'yobga chiqarishga qaratilgan²². Protsessual muddatlarning vazifasi – vaqtning umumiy birliklari asosida qat'iy chegalarni belgilash orqali jinoyat protsessining tezkor va samarali yuritilishini hamda qabul qilingan qarorlarning barqarorligini ta'minlashdan iboratdir²³.

Protsessual muddatlarning ahamiyati shundan iboratki, u haqiqatni aniqlashning huquqiy vositasi va jinoyat natijasida jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar qoplanishini zaruriy shartidir. Shu jihatdan, ular jinoyat protsessida huquqiy vositalarning bir turi sifatida protsessual kafolatlardan biridir²⁴. Ayni paytda, muddatlar jinoyat protsessi vazifalarini tez va samarali hal etish, taraflarning huquqlari cheklanishini oldini olish hamda u yoki bu protsessual harakatlarni amalga

¹⁹ Петрова Г.Б. Сроки как элемент правового регулирования в уголовном судопроизводстве: Автореф. ... дисс. канд. юрид. наук. -Саратов, 2004. -С. 26.

²⁰ Рыжаков А.П. Уголовный процесс России: Курс лекции. -СПб: Питер, 2009. -С. 15.

²¹ Самылина И.Н. «Разумные сроки» в уголовном процессе // Российская юстиция, 2009. -№ 4. -С. 48.

²² Петрухин И.Л. Уголовно-процессуальное право. 2-е изд. -М.: «Проспект», 2009. -С. 286.

²³ Рохлин В.И. Уголовно-процессуальное право: Учебник. - СПб:«Юридический центр Пресс», 2004. -С. 226.

²⁴ Калиновский К.Б. Процессуальные сроки в уголовном судопроизводстве и их регламентация по Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации // Ленинградский юридический журнал, 2005. -№2(3). -С. 39-145.

oshirilish fursatini tartibga solinishini ham kafolatlaydi.²⁵ Ular tashkiliy jihatdan, protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlanishini, protsessual bosqichlar uzluksizligi hamda protsessual harakatlarning o'z vaqtida bajarilishiga imkon beruvchi protsessual kafolat hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan fikrimizga ko'ra, jinoyat protsessual muddatlar – jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish yoki bajarishdan o'zlarini tiyishga oid jinoyat protsessual qonunda ko'rsatilgan yoki unga binoan jinoyat ishini yuritishga mas'ul shaxslar tomonidan belgilangan muddatlardir.

Ayni damda jinoyat protsessual muddatlar tushunchasida JPKda ta'rif berilmaganligini inobatga olib, uning 39-bobini "Protsessual muddatlar" deb nomlanuvchi 313¹-modda bilan boshlash, uni yuqorida keltirilgan ta'rif bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Qonunda ularga ta'rif berilishi uning huquqiy mohiyatini, o'ziga xos belgilarini aniqlashga oydinlik kiritadi.

Jinoyat protsessida muddatlar JPKning 2-moddasida belgilangan jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish, qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash vazifalarini bajarish uchun belgilab beriladi²⁶. Jinoyat protsessual vazifalarning tez amalga oshirilishi, ko'p jihatdan muddatlarning belgilanishi bilan bog'liq va aynan ular jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarini to'la ta'minlashning garovi sanaladi. Jinoyat protsessining har bir bosqichidan keyingisiga ketma-ketlik va izchillik asosida o'tilar ekan, ana shu bosqichlarning barchasida qonuniylik prinsipiga rioya etilishi, protsess ishtirokchilarining muayyan huquq va majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi protsessual muddatlar bilan bog'liq.

Ularning belgilanishidan maqsad – protsess ishtirokchilarining huquq va erkinligi, qonuniy manfaatlarining o'z vaqtida hamda jinoyat ish yurituvida oqilona tezkorlikning ta'minashdan iborat. Shunga ko'ra, protsessual qonunda bosqichlardan tashqari, protsessual ehtiyot va majburlov choralarning, qo'llanilishi hamda protsess ishtirokchilari tomonidan muayyan qaror yoki harakatlar ustidan e'tiroz, shikoyat, ariza, iltimosnomalar kiritilishi uchun ham muddatlar belgilangan bo'lib, ular yuridik fakt bo'lganligi sababli, muddati o'tkazib yuborilishi jiddiy huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, barcha protsess ishtirokchilarining muddatlarga rioya etishi va qat'iy qoidalarga amal qilishlari talab etiladi. Yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilmaslik natijasida turli huquqiy oqibatlar, jumladan, jinoyat to'g'risidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni yashirib, ularni qabul qilish, ro'yxatga olish yoki ko'rib chiqish bilan bog'liq vazifalarning o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun JKning 241¹-moddasiga ko'ra jinoiy javobgarlik belgilangan. Muddatlarga rioya etmasdan bajarilgan protsessual harakatlar hech qanday yuridik kuchga ega bo'lmasligiga hamda muddatlarga rioya etilmay chiqarilgan huquqiy hujjatlar bekor qilinishiga ham olib keladi. Masalan, JPKning 497¹⁹-moddasiga binoan, hukmning bekor qilish yoki o'zgartirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

²⁵ Гусинский С.Б. Уголовный процесс России: Курс лекций. -2-е изд., исправлен, и дополнен. -М.: «Эксмо», Л. -С. 222; Мариупольский Л.М. Настольная книга следователя. - М., 1949. -С. ПО; Гуляев А.П. Процессуальные сроки

²⁶ ФПКнинг 4-моддасига биноан, мuddatлар фуқаролик ишларини тўғри, ўз вақтида кўриб чиқиш ва ҳал қилиш вазифаларини таъминлаш учун белгиланган.

- 1) Sud tergovining to‘liq emasligi yoki bir yoqlama olib borilganligi;
- 2) Sudning hukmida bayon qilingan sud xulosalari ishning haqiqiy holatlariga muvofiq kelmasligi;
- 3) JPK normalarining jiddiy ravishda buzilganligi;
- 4) JK normalarining noto‘g‘ri qo‘llanilganligi;
- 5) Jazoning adolatsizligi.

Umuman, huquqni muhofaza etuvchi idora hodimlarining o‘z vazifasiga loqaydligi, mas’uliyat bilan yondashmasligi natijasida birgina tergovning o‘zida jinoyat protsessul qonun talablarining qo‘pol ravishda buzilishi – fuqarolarning noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortilishiga, ularning huquqlari pomol qilinishiga, uzoq vaqt mobaynida sansalorlikka yo‘l qo‘yilishi, jinoyatlarning asl sabab va shart-sharoitlari fosh qilinmasligi va bartaraf etilmasligiga sabab bo‘ladi²⁷.

Jinoyat protsessual muddatlar protsess ishtirokchilari tomonidan o‘z huqularidan imkon qadar tez, to‘liq va to‘g‘ri foydalanishlari hamda majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishlari uchun belgilangan ekan, unga amal qilishni umumiy rahbariy qoida sifatida tan olish joiz. Alohida protsessual harakatni bajarishda yoki butun protsess davomida muddatlarga qat‘iy rioya etish jinoyatlarning tez va to‘la ochilishi, inson huquqlarining ta‘minlanishida jiddiy ahamiyatga ega. Protsessual muddatlarga rioya etilishi barcha hollarda, doimo majburiy ekanligi – bunday talabni jinoyat protsessining prinsiplari darajasida baholash uchun asosdir. Prinsiplarga rioya etilishi jinoyat protsessining samaradorligini belgilaydi. Qonunda belgilangan prinsiplarga jinoyat ishini yuritishga mas‘ul shaxslar va protsessning barcha ishtirokchilari rioya qilishga majbur. Protsessual harakatlarni bajarishda prinsiplarga rioya qilinsada, ular qonunda belgilangan muddatlar o‘tkanidan so‘ng amalga oshirilsa, samarasiz hisoblanadi. Shubhasizki, protsessual muddatlarga rioya qilishni prinsip sifatida e‘tirof etish mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. “O‘zbekiston” 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
5. Qadirova Mohigul Xamitovnaning yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi Toshkent. 2011
6. Пономарев.А До судебное производство: возможности совершенствования //Законность. М, 2009. №6-С 47-48; Маслов.И Реформа досудебного производства //Законность –М, -№5. –С. 20.
7. Muhitdinov.F.M. Jinoyat protsessi: mohiyat, mazmun, shakl. –Toshkent. 2002 –B 231

²⁷ Po ‘latov.B.X Konstitutsiya talablariga rioya qilish – huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining huquqiy madaniyati // TDYI Axborotnomasi -№8, 2009. –B 75.

8. Po 'latov.B.X Konstitutsiya talablariga rioya qilish – huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining huquqiy madaniyati // TDYI Axborotnomasi -№8, 2009. –В 75.
9. Рохлин В.И. Уголовно-процессуальное право: Учебник. - СПб:«Юридический центр Пресс», 2004. -С. 226.
10. Калиновский К.Б. Процессуальные сроки в уголовном судопроизводстве и их регламентация по Уголовно- процессуальному кодексу Российской Федерации // Ленинградский юридический журнал, 2005. -№2(3). -С. 39-145.